


## 42. Qoldiq



Yohdosh mavzu:  
sport trenerlari.

Bo'linuvchi, bo'luvchi, to'liqsiz  
bo'linma, qoldiq.



1. Trener 9 ta bolani ikki jamoaga ajratib, har biriga 4 tadan bolani kiritdi. Hamma bolalar ham jamoaga kira oldimi?



Bu bolalarni nechta jamoaga ajratsak, har bir jamoadagi bolalarning soni teng bo'ladi?

Bo'linuvchi bo'luvchiga butun bo'linmasa, bu holat qoldiq bilan bo'lish deb ataladi.

Qoldikli bo'lish mana shunday ifodalanadi:

$$9 : 2 = 4 \text{ (qoldiq 1).}$$

9 sonini 2 soniga bo'lsak, to'liqsiz bo'linma 4 chiqadi, 1 esa qoldiq sifatida qoladi.

Bu holatda bo'linuvchi bo'luvchiga butun bo'linadi, qoldiq esa qolmaydi, ya'ni qoldiq 0 ga teng bo'ladi.

Bu holatda qoldiq yozilmaydi:  $9 : 3 = 3$ .



2. 26 ta futbol to'pi qutilarga 6 tadan solinyapti. Nechta to'p ortib qoladi? Buni qoldikli bo'lish shaklida yozib qo'ying.





3. Trenerda 19 ta raketka bor. U raketkani juft-juft qilib taxlasa, nechta raketka ortib qoladi? To'g'ri javobni toping.

$$19 : 2 = 8 \text{ (qoldiq 3)} \quad 19 : 2 = 5 \text{ (qoldiq 9)} \quad 19 : 2 = 9 \text{ (qoldiq 1)}$$



Bo'lishda qoldiq doim bo'luvchidan kichik bo'ladi.  
 $47 : 5 = 9 \text{ (qoldiq 2)}$   
 2 qoldiq bo'luvchi 5 dan kichik.



4. Suratga qarab, bo'lishni bajaring. Yechimni daftarga yozing.

$$7 : 2$$



$$9 : 5$$



$$8 : 3$$



$$8 : 4$$



5. Sonni 5 ga bo'lganda necha qoldiq qolishi mumkin? 3 ga bo'lganda-chi? 9 ga bo'lganda-chi? Misollar keltiring.



6. To'rt xonali sonlarni o'sib borish tartibida joylashtiring. Qanday so'z hosil bo'ldi? Bu numani bildiradi?

$$\mathbf{U} \quad 89\,520 - 87\,146$$

$$\mathbf{S} \quad 885 + 783$$

$$\mathbf{I} \quad 40\,300 - 39\,325$$

$$\mathbf{M} \quad 19\,005 + 14\,621$$

$$\mathbf{V} \quad 7\,766 + 1\,982$$


$$\mathbf{Z} \quad 31\,789 - 27\,408$$

$$\mathbf{SH} \quad 25\,859 - 16\,147$$

$$\mathbf{I} \quad 51\,003 - 45\,733$$



7. Velopoygada Osiyodan 64 ta sportchi qatnashyapti. Yevropalik sportchilar esa ulardan 3 baravar ko'p. Amerikalik sportchilar esa osiyoliklardan 14 ta kam. Barcha sportchilarni uch kishilik guruhlarga ajratsak, nechta guruh hosil bo'ladi?



## 42. Qoldiq



8. Har 4 yilda bir marta o'tkaziladigan eng yirik xalqaro sport musobaqalari nima deb atalishini toping. Bu musobaqalarda qo'lga kiritilgan medal sportdagi eng katta yutuq hisoblanadi.

**A**  $630 : 9 + 140 : 20$

**D**  $12 \cdot 6 + 14 \cdot 8$

**E**  $900 : 10 - 250 : 50$

**L**  $37 \cdot 3 - 14 \cdot 5$

**I**  $720 : 8 + 560 : 70$

**M**  $55 \cdot 6 - 42 \cdot 4$

**O**  $450 : 5 - 350 : 7$

**P**  $83 \cdot 4 + 12 \cdot 8$

40	41	98	162	428	98	77	184	77
----	----	----	-----	-----	----	----	-----	----



9. Aziz, Bahrom va Doston yugurishda qatnashishdi. Oldin Aziz, keyin Bahrom, keyin Doston yugurdi. Yo'lda Azizdan 3 marta, Bahromdan 5 marta, Dostondan esa 8 marta o'zib ketishdi. Bolalar finishga qanday tartibda yetib kelishdi?



10. Suratga qarab, bo'lishni bajaring: shakllarni daftarga ko'chirib olib, namunadagidek guruh-guruh qilib (har bir guruhni o'z rangiga) bo'yab chiqing.

Namuna:

$12 : 5$

$16 : 7$

$13 : 4$

$16 : 3$

$15 : 2$



11. Musobaqada 42 ta mamlakat qatnashyapti. Har bir mamlakatdan 12 tadan sportchi va 3 tadan trener kelgan. Ular mehmonxonaning 9 ta qavatini to'liq egallashdi. Mehmonxonaning har bir qavatida nechtadan xona bor?